



COVERAGE OF THE SOCIO-SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE SOURCES OF ANCIENT EASTERN CIVILIZATIONS: THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS

Alisher Rizokulovich Atayev

Independent Researcher

The Institute for Social and Spiritual Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Ancient East, socio-spiritual environment, stability, trust, didactic texts, legal norms, justice, dharma, Confucius, Hammurabi.

Received: 08.03.26

Accepted: 09.03.26

Published: 10.03.26

Abstract: This article analyzes how the socio-spiritual environment was shaped in the written sources of Ancient Eastern civilizations (Ancient Egypt, Sumer-Mesopotamia, Babylon, Ancient India, and Ancient China). It argues that the socio-spiritual environment functions as a stability-maintaining system through didactic instruction, legal “mandatory guarantees” (law and punishment), and moral-duty/justice concepts (dharma, humaneness). The paper concludes with an integrative stability model: “education + institutions + trust”.

QADIMGI SHARQ SIVILIZATSIYALARI MANBALARIDA IJTIMOYIY-MA'NAVIY MUHITNING YORITILISHI: NAZARIY VA AMALIY ASOSLAR

Alisher Rizoqulovich Atayev

Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Toshkent O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: qadimgi Sharq, ijtimoiy-ma'naviy muhit, barqarorlik, ishonch, pand-nasihat, huquqiy meʼyor, adolat, dharma, Konfutsiy, Xammurapi, Shuruppak.

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadimgi Sharq sivilizatsiyalari (Qadimgi Misr, Shumer-Mesopotamiya, Bobil, Qadimgi Hindiston, Qadimgi Xitoy) yozma manbalari misolida ijtimoiy-ma'naviy muhitning shakllanish mexanizmlari qiyosiy-tarixiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy-ma'naviy muhit jamiyat barqarorligini ta'minlovchi murakkab tizim

ekani asoslanib, didaktik pand-nasihatlar, huquqiy “majburiy kafolat” (qonun-jazo) hamda burch va adolat konsepsiyalari (dharma, insonparvarlik) orqali me’yorlarning jamiyatga singdirilishi yoritiladi. Natijada barqarorlikni ta’minlashning umumiy modeli sifatida “tarbiya + institut + ishonch” uchligi umumlashtiriladi.

ОСВЕЩЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОЙ СРЕДЫ В ИСТОЧНИКАХ ДРЕВНЕВОСТОЧНЫХ ЦИВИЛИЗАЦИЙ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Алишер Ризокулович Атаев

Независимый исследователь

Института социально-духовных исследований

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Древний Восток, социально-духовная среда, устойчивость, доверие, наставления, правовая норма, справедливость, dharma, Конфуций, Хаммурапи.

Аннотация: В статье на материале письменных источников цивилизаций Древнего Востока (Древний Египет, Шумер-Месопотамия, Вавилон, Древняя Индия, Древний Китай) анализируются механизмы формирования социально-духовной среды. Показано, что она выступает как система поддержания устойчивости: через дидактические наставления, правовые гарантии (закон и наказание) и ценности долга и справедливости (dharma, человеколюбие). В качестве обобщения предлагается модель устойчивости “воспитание + институт + доверие”.

Kirish. Ijtimoiy-ma’naviy muhit tushunchasi har bir davrda bir xil “ta’rif” yoki bir xil “qoidalar to’plami” sifatida emas, balki o’sha davrning hayotiy tajribasi, jamoaviy ehtiyojlari va barqarorlikni ta’minlash mexanizmlari bilan bog‘liq holda shakllangan murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi: ba’zi joylarda uning markazida insonning ichki pokligi va so‘z madaniyati turgan bo‘lsa, boshqa joylarda oila muqaddasligi va avlodlararo intizom birinchi o‘ringa chiqqan, yana boshqa sivilizatsiyalar esa axloqiy me’yorlarni qonun va jazo orqali “majburiy kafolat” darajasiga ko‘targan, ba’zilari esa adolatni insonning burchi va hayot qoidasi sifatida talqin qilib, uning ijtimoiy tartibga ta’sirini ichki e’tiqod bilan bog‘lagan. Shu nuqtai nazardan qaraganda,

ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish – bu faqat qadimgi matnlardan namuna keltirish emas, balki u matnlarda jamiyat qanday “ishonch” qurgani, tartibni qanday saqlagani, insonni qanday mas'uliyatga chorlagani va bu mas'uliyatning barqarorlikka qanday xizmat qilganini ochib berish demakdir; aynan shunday yondashuv bugungi zamonaviy islohotlar tilida ham ahamiyatli, chunki jamiyatda ishonch susayganda yoki beqarorlik kuchayganda, muammo ko'pincha faqat iqtisodiy resursda emas, balki qadriyatlar tizimidagi uzilish, mas'uliyat me'yorlarining zaiflashuvi, adolat hissining yemirilishi kabi ma'naviy omillarda namoyon bo'ladi.

Ana shu umumiy nazariy yo'nalishni asosga olgan holda qadimgi sivilizatsiyalar tajribasiga murojaat qilsak, dastlab Qadimgi Misr misolida ijtimoiy-ma'naviy muhitning ilk va ta'sirchan ko'rinishlaridan biri – pand-nasihat (didaktik) ruhdagi manbalar orqali shakllanganini ko'ramiz. Qadimgi Misrda ijtimoiy-ma'naviy muhit, ayniqsa, pand-nasihat ruhidagi manbalar orqali ifodalangan bo'lib, bu tur manbalar qatoriga Qadimgi Misr dononalik adabiyotining “sebait” janri kiradi (dononalik adabiyoti (“sebait”) – bu qadimgi Misrda shakllangan maxsus adabiy janr bo'lib, u ota-onadan farzandga, ustozdan shogirdga berilgan hayotiy pand-nasihatlar, odob-axloq qoidalari va hayot haqidagi hikmatli o'gitlardan iborat asarlar to'plami hisoblanadi); “sebait” so'zi esa Misr hieroglifi “sb'yt”dan kelib chiqqan bo'lib, ma'nosi “o'git”, “ta'lim”, “hikmatli nasihat” deganidir. Ana shu janrning mashhur namunasidan biri – «Ani o'gitlari» bo'lib, u miloddan avvalgi XIV–XIII asrlarda yaratilgan deb hisoblanadi, asar ota tomonidan o'g'ilga qaratilgan pand-nasihat shaklida bayon etilgani, unda diniy e'tiqod, axloqiy poklik va ijtimoiy mas'uliyat g'oyalari mujassam ekani ta'kidlanadi hamda manbaning bizgacha yetib kelgan nusxalari keyingi davrlarga (XXI–XXII sulolalar) oid papiruslarda saqlangani qayd etiladi. Asarda quyidagi axloqiy ko'rsatmalar uchraydi: “Haqiqat Xudo tomonidan yuborilgan. Yolg'on gapirish xatosidan ehtiyot bo'ling: bu sizga ichingizdagi yovuzlikka qarshi kurashishga to'sqinlik qiladi. Aytishga yaxshi so'zni tanlang va yomon so'zlarni tanangizda asir qilib tuting. Onangiz sizga bergan nonni ko'p qilib qaytaring. U sizga qanday yordam bergan bo'lsa, siz ham uni qo'llab-quvvatlang. O'zingiz non yeyayotganingizda yoningizda hech narsasi yo'q odamga ham bering, chunki non abadiydir, inson esa abadiy emas.” [1:21,79,106,123]. Mazkur nasihatlar qadimgi Misr ma'naviy tafakkurida haqiqat va rostgo'ylik jamoa hayoti barqarorligining asosiy mezoni sifatida qabul qilinganini ko'rsatadi, chunki yolg'ondan saqlanish bu yerda faqat shaxsiy fazilat emas, balki jamiyatda o'zaro ishonchni mustahkamlovchi ijtimoiy tamoyil sifatida namoyon bo'ladi, “yaxshi so'zlash”ga doir ko'rsatma esa insonlar o'rtasidagi muomala madaniyati, murosachilik va totuvlikni targ'ib qiluvchi axloqiy qoida sifatida talqin etiladi. Ota-onaga hurmat mavzusi ham manbada jamiyat barqarorligining muhim tayanchi sifatida ko'rsatilgan bo'lib, ayniqsa onaga minnatdorlik va

xizmat qilish talabi oilaviy qadriyatlar hamda avlodlar davomiyligini jamoa tartibi bilan bog'laydigan ma'naviy mezon sifatida namoyon bo'ladi, shu bilan birga muhtojga yordam berish haqidagi pand ijtimoiy birdamlik g'oyasining qadrlanganidan dalolat beradi, zero "yoningizda hech narsasi yo'q odamga non berish"ga da'vat jamiyatda barqarorlik faqat shaxsiy farovonlik bilan emas, balki o'zaro ko'mak va adolat ruhida munosabatlar bilan ta'minlanishini anglatadi.

Demak, qadimgi Misr manbalaridan kelib chiqadigan xulosa shuki, axloqiy tozalik va ijtimoiy uyg'unlik bir-biridan ajralmas tushunchalar sifatida qaraladi, insonning qanday yashashi rostgo'ylik, yaxshi so'z, ota-onaga hurmat va muhtojga yordam kabi mezonlar orqali belgilanib, ma'naviy maqsad jamoada ishonch va birdamlikni saqlash, adolat va halollik ruhida umr kechirish sifatida izohlanadi.

Ijtimoiy-ma'naviy muhit turli sivilizatsiyalar tajribasida faqat shaxsiy axloq bilan cheklanib qolmagani uchun, keyingi bosqichda u diniy e'tiqod, jamoaviy tartib va davlat hokimiyati bilan uyg'un holda shakllangan misollarga o'tish mumkin bo'ladi va ana shu jihatdan Qadimgi Mesopotamiya, xususan, Shumer shahar-davlatlari misolida ijtimoiy-ma'naviy muhitning jamoaviy intizom va hokimiyat tizimi bilan bog'liq tarzda qanday ifodalangani ko'rinadi. Qadimgi Mesopotamiya, xususan Shumer shahar-davlatlarida (mil. avv. IV–III ming yilliklar) ijtimoiy-ma'naviy muhit, asosan, diniy e'tiqod va siyosiy hokimiyat uyg'unligi zaminida shakllangan bo'lib, bu davr yozma yodgorliklari orasida «Shuruppak nasihatlari» (mil. avv. taxm. 2600–2500-yillar) alohida o'rin tutadi va u yosh avlodni odob-axloqqa o'rgatish, oilaviy hurmatni mustahkamlash hamda jamiyatda totuvlikni ta'minlashga qaratilgan eng qadimiy pandnomalardan biri sifatida baholanadi. Asardan ayrim satrlar: «Birovning qiziga zo'rlik qilma, bu haqida hovlida e'lon qilma», «Otangga javob qaytarma, "og'ir nigoh" ko'tarma». [2:145-150] Mazkur pand-nasihatlar Shumer jamiyatida axloqiy poklik, oila muqaddasligi va ijtimoiy intizom birinchi darajali qadriyat sifatida qabul qilinganini ko'rsatadi, xususan «Birovning qiziga zo'rlik qilma» degan ogohlantirish shaxsiy xatti-harakat faqat insonning o'ziga daxldor emas, balki jamoat muhitiga ta'sir ko'rsatuvchi omil ekanini anglatadi, demak odobsizlik va tajovuz jamiyat barqarorligini izdan chiqaruvchi tahdid sifatida baholangan. Shuningdek, ota-onaga itoatga doir nasihatlar qadimgi Shumerda avlodlararo munosabatlar ijtimoiy tuzumning muhim tayanchi bo'lganini, ota-onaga hurmat esa jamoada ierarxiyani mustahkamlash bilan birga umumiy intizomni saqlashga xizmat qilganini ko'rsatadi.

Biroq jamiyat taraqqiyotida me'yorlarni faqat pand-nasihat bilan saqlab turish har doim ham yetarli bo'lmagani bois, keyingi bosqichda axloqiy talablar huquqiy qoidalar bilan mustahkamlanib boradi va bu jarayon Bobil podshosi Xammurapi (mil. avv. XVIII asr) tuzgan

qonunlar to'plamida yaqqol namoyon bo'ladi. Qonunlarda oilaviy sadoqat va oila daxlsizligi qat'iy huquqiy kafolat sifatida mustahkamlangan: "Agar erkakning xotini boshqa bir erkak bilan ushlansa, ular ikkalasi ham suvga tashlanadi". Shuningdek, shaxsiy daxlsizlikni himoya qiluvchi normalar ham keskin ifoda etilgan: "Agar erkak hali er ko'rmagan qizga zo'rlik qilsa, u o'ldiriladi, qiz ozod qilinadi". Ota-onaga nisbatan hurmatsizlik esa og'ir jinoyat deb baholanadi: "Agar kishi otasini ursa, qo'li kesiladi". Sud-adolat tizimida halollik tamoyilini saqlashga qaratilgan qoida ham qat'iy qo'yilgan: "Agar sudya chiqargan hukmni o'zgartirsa, u lavozimidan chetlatiladi va jarimaga tortiladi"[3:2,24,25,53]. Mazkur normalardan ko'rinadiki, Xammurapi qonunlari qadimgi Bobil jamiyatida axloqiy talablarni huquqiy mexanizmlar orqali kafolatlashga qaratilgan, ya'ni xiyonat, zo'rlik va ota-onaga hurmatsizlikka nisbatan og'ir jazolar belgilanishi shaxsiy xulq-atvorning jamoa barqarorligiga bevosita ta'sir qiluvchi omil sifatida baholanganini anglatadi, sudya mas'uliyatiga oid norma esa adolatning ijtimoiy hayotdagi ustuvor tamoyil sifatida qaralganidan dalolat beradi.

Barqarorlikning huquqiy kafolati bilan birga, ayrim sivilizatsiyalar adolat va tartib g'oyasini kengroq ma'naviy tushuncha sifatida anglatib, uni insonning burchi va hayot qoidasi bilan bog'lagani sabab, Qadimgi Hindiston tajribasiga murojaat qilish mantiqiy bo'ladi. Qadimgi Hindistonning eng yirik epik asarlaridan biri – "Mahabhorata" (mil. avv. IV–III asrlar) – diniy-falsafiy va axloqiy qarashlar majmuasi sifatida baholanadi va uning markaziy g'oyalaridan biri dharma tushunchasi bo'lib, u "qonun", "tartib", "adolat" ma'nolarini anglatadi, asarda shunday deyiladi: "Dharma rakshati rakshitah, yato dharmas tato jayah" – "Adolatni asragan kishi adolat tomonidan asraladi; adolat bor joyda g'alaba bo'ladi"[4:Title page]. Demak, mazkur g'oya qadimgi hind tafakkurida adolatni jamiyat barqarorligining oliy mezon sifatida ko'rsatadi, chunki dharma nafaqat shaxsiy hayotning axloqiy-me'yoriy qoidasi, balki butun ijtimoiy tizimni birlashtiruvchi tamoyil bo'lib xizmat qiladi va inson o'z dharmasiga amal qilsa, u nafaqat o'zini, balki jamiyat tartibi va totuvligini ham mustahkamlaydi. Dharma g'oyasi umumiy ma'naviy yo'l-yo'riq sifatida namoyon bo'lsa, uning kundalik ijtimoiy munosabatlarni qanday tartibga solganini ko'rsatuvchi me'yoriy manbalarga o'tilganda mehmondo'stlik, hurmat va so'z madaniyatiga oid qoidalarining naqadar muhimligi oydinlashadi.

Ana shu nuqtada Qadimgi Hindiston manbalaridan biri – "Manusmriti (Manu qonunlari)"ga murojaat qilish o'rinli. Unda: "Hech bir mehmon uyida hurmatsiz qolmasligi lozim..." va "U haqni aytsin, shu bilan birga xushomadli va yoqimli so'zni aytsin..." [5:29,138] kabi normalar mehmonga hurmat va odob-axloqni diniy burch darajasiga ko'targanini ko'rsatadi; mehmondo'stlik shaxsiy fazilat emas, balki ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi tamoyil sifatida

talqin qilingani, soʻz madaniyati esa jamiyatda tinchlik va murosah muhitini taʼminlovchi asosiy vosita boʻlib xizmat qilgani tufayli rostgoʻylik bilan birga insonlar oʻrtasidagi totuvlik ham muhim hisoblangani umumlashadi.

Ijtimoiy-maʼnaviy muhitni tartibga soluvchi bunday meʼyoriy tushunchalar faqat Hindiston manbalariga xos emas, Sharq sivilizatsiyalari tafakkurida ham inson kamoloti, jamoa tartibi va davlat boshqaruvi masalalari axloqiy tamoyillar asosida izohlangani uchun, Qadimgi Xitoyda Konfutsiy asos solgan taʼlimot orqali shakllangan qarashlarga oʻtish tabiiydir. Konfutsiyni mashhur asari – «Lun yuy» («Suhbatlar va mulohazalar») – axloqiy qarashlar, davlat boshqaruvi tamoyillari va jamiyat tartibini oʻzida mujassam etgan muhim manba hisoblanib, unda ijtimoiy-maʼnaviy muhit insonning axloqiy kamoloti va jamiyat tartibining oʻzaro bogʻliqligi orqali talqin etiladi. Xususan, «Lun yuy»da shunday deyiladi: «Insonparvar kishi oʻzini barpo etishni istasa, boshqalarni ham barpo etadi...» [6:60]. Mazkur iqtibos insonparvarlikni faqat shaxsiy fazilat emas, balki ijtimoiy munosabatlarda oʻzaro koʻmak, masʼuliyat va hamjihatlikni yuzaga keltiradigan amaliy qoida sifatida koʻrsatadi: inson oʻz kamolotini boshqalar manfaati bilan uygʻunlashtirganidagina jamoada maʼnaviy muhit mustahkamlanadi.

Shu maʼnoda, qadimgi manbalar bizga faqat tarixiy maʼlumot emas, balki har bir zamonda dolzarb boʻladigan metodologik xulosani ham taklif qiladi: ijtimoiy-maʼnaviy muhitning barqarorligi rost soʻzga, ishonchga, oila va avlod uzviyligiga, adolatni muhofaza qilishga, mehr-shafqat va oʻzaro koʻmakni kuchaytirishga, eng muhimi esa insonning ichki masʼuliyatiga tayanadi. Shu sababli qadimgi tajribalarni qiyosiy oʻrganish nafaqat tarixiy bilimimizni boyitadi, balki bugungi jamiyatda barqarorlikni faqat iqtisodiy resurs yoki maʼmuriy nazorat orqali emas, balki maʼnaviy ishonch va adolat hissi tiklanishi orqali ham taʼminlash mumkinligini anglashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tarixiy yondashuv, matnshunoslik (manbashunoslik) hamda konseptual tahlil usullari birgalikda qoʻllandi. Metodologik nuqtai nazardan asosiy maqsad — qadimgi Sharq sivilizatsiyalarida ijtimoiy-maʼnaviy muhit qanday «ishlaganini», yaʼni meʼyorlar qanday shakllangani, ularni kim (qaysi institut) uzatgani va bu meʼyorlar jamiyat barqarorligiga qaysi yoʻl bilan xizmat qilganini izchil koʻrsatib berishdan iborat boʻldi. Shu sababli tadqiqot birinchi navbatda normativ qatlamni (qoidalar va tamoyillar), keyin esa bu normativ qatlamni «amalda ishlatgan» institutsional mexanizmlarni ajratib oʻrganishga tayanadi.

Birinchi qadam sifatida har bir sivilizatsiyada ijtimoiy-maʼnaviy muhit qanday institutlar orqali tartibga solingani aniqlandi: (a) tarbiya va pand-nasihatga asoslangan didaktik matnlar

(nasihat, hikmat, o'g'it), (b) huquqiy kafolatga tayangan qonun va jazolar tizimi, (v) ma'naviy-axloqiy burchni ilgari suruvchi adolat, mas'uliyat va soflik konsepsiyalari. Bu tasnif tadqiqot uchun "skelet" vazifasini bajardi: har bir manbada qaysi mexanizm ustun ekani aniqlanib, keyin o'sha mexanizmining barqarorlikka ta'siri izohlandi.

Shu maqsadda matnlardagi me'yorlar (rostgo'ylik, so'z odobi, ota-onaga hurmat, jamoaviy ishonch, sud halolligi va h.k.) alohida kodlar sifatida belgilandi. So'ng bu kodlarning "barqarorlik"ka xizmat qilishi uch bosqichda ochib berildi: 1) me'yorning matnda qanday qo'yilishi (ta'qiq, buyruq, tavsiya yoki g'oya ko'rinishida); 2) uni kafolatlovchi mexanizm (tarbiya, marosimiy/diniy burch, huquqiy sanksiya va javobgarlik); 3) natija — ya'ni me'yorning ishonch, tartib, totuvlik yoki adolat hissiga real ta'siri.

Ikkinchi qadam — institutsional uzatish va meros mexanizmini tahlil qilishdan iborat bo'ldi. Chunki qadimgi jamiyatlarda barqarorlik faqat "me'yorni aytish" bilan emas, uni avloddan avlodga "uzatish" orqali mustahkamlangan: oila, ma'bad, kohinlik, maktab yoki saroy an'analari me'yorning ijtimoiy "xotira"ga aylanishiga xizmat qilgan. Masalan, Qadimgi Misrda diniy-ijtimoiy tartibning uzluksizligi vazifa va maqomlarni farzandga meros qoldirish orqali ham saqlanishi manbada ochiq qayd etiladi: "ular o'z ulushini (ka-kohinlik maqomi bilan birga) farzandlariga meros qilib qoldirishlari kerak." [7:98]. Bu misol "institut"ning rolini ko'rsatadi: me'yorlar barqaror bo'lishi uchun ularni muntazam uzatuvchi ijtimoiy mexanizm zarur bo'lgan.

Uchinchi qadam — qiyosiy sintez bo'lib, har bir manbada "pand-me'yor-barqarorlik" zanjiri qanday ishlashini solishtirish orqali umumiy model ishlab chiqildi. Natijada me'yorlar turlicha bo'lsa-da, ularning jamiyatni "ichkaridan" (tarbiya va burch) yoki "tashqaridan" (huquqiy kafolat) barqarorlashtirishga xizmat qilgani metodologik darajada asoslandi.

Tahlil va natijalar. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, qadimgi Sharq sivilizatsiyalarida ijtimoiy-ma'naviy muhit "bir xil axloqiy da'vat" yoki umumiy shiorlar yig'indisi emas, balki jamoaviy ishonch va tartibni saqlaydigan turli mexanizmlar tizimidir. Eng muhim jihat shundaki, bu tizimlar bir-biriga o'xshash mavzularni (rostlik, hurmat, adolat, mas'uliyat) ko'taradi, ammo ularni jamiyat hayotiga singdirishda turlicha yo'l tanlaydi: ba'zilar tarbiya va ichki nazoratga tayanadi, ba'zilar huquq va sanksiya orqali "majburiy kafolat" yaratadi, boshqalari esa burch va e'tiqod yo'li bilan me'yorni ichki tamoyilga aylantiradi.

Birinchi yo'nalish — didaktik matnlar orqali ichki nazoratni kuchaytirish. "Shuruppak nasihatlari" doirasida so'z madaniyatining jamoaviy xavfsizlik va obro' bilan bevosita bog'langanini ko'ramiz: "Nomaqbul gapirma; keyin u senga tuzoq qo'yadi." [8:223]. Bu fikr nutqni shunchaki odob yoki muomala masalasi sifatida emas, balki ijtimoiy riskni boshqaruvchi

mexanizm sifatida ko'rsatadi: nomaqbul so'z keyinchalik insonning o'ziga qarshi ishlashi, obro'ni yemirishi va jamoada ishonchni susaytirishi mumkin. Demak, bu an'anada barqarorlik til va xulq ustidan ichki nazorat orqali ushlab turiladi.

Ikkinchi yo'nalish — ijtimoiy muhitni insonparvarlik va hamjihatlik mezoni bilan mustahkamlash. Konfutsiy an'anasida shaxs kamoloti jamoadan uzilmaydi, "men"ning o'sishi "biz"ning barqarorligi bilan bog'liq deb qaraladi. Shuning uchun insonning ulug'ligi ham yolg'iz yutuqlar bilan emas, balki boshqalar bilan hamdardlik va hamkorlik rishtalari orqali o'lchanadi: "Insonning ulug'ligi u bilan boshqalar o'rtasidagi hamdardlik darajasi bilan o'lchanadi." [6:11]. Bu yondashuv ijtimoiy-ma'naviy muhitni "hamjihatlik texnologiyasi" sifatida ishlatadi: hamdardlik kuchaysa, ishonch kuchayadi; ishonch kuchaysa, tartib barqarorlashadi.

Uchinchi yo'nalish — adolat va tartib g'oyasini "ichki burch" sifatida mustahkamlash. Hind tafakkurida "dharma" nafaqat me'yor, balki barqarorlikning ma'naviy tayanchi, jamiyatni tutib turuvchi ichki qonun sifatida talqin qilinadi. Shu sababli dharma "jazodan qo'rqish" emas, balki "adolatni asrash" orqali g'alaba va barqarorlikka erishish g'oyasini ilgari suradi. Bu yerda adolat jamiyatni himoya qiladigan kuch sifatida ko'rsatiladi: inson adolatni saqlasa, jamiyatda ishonch va tartibning ichki asosi mustahkamlanadi.

To'rtinchi yo'nalish — axloqiy me'yorlarni huquqiy "majburiy kafolat"ga aylantirishdir. Xammurapi qonunlarida barqarorlikning tayanchi sifatida adolatli sud va hukmning o'zgarmasligi g'oyasi ajralib turadi: sudya chiqargan hukmni keyin o'zgartirishi mumkin emas, aks holda u lavozimidan chetlatilib jarimaga tortilishi belgilangan; demak, sud tizimi "sotilsa" yoki hukm o'zgartirilsa, jamoaviy ishonch parchalanadi. Shu sabab bu modelda barqarorlik "ichki tarbiya"dan ko'ra ko'proq "tashqi kafolat" orqali ta'minlanadi: qonun ishonchni himoya qiladi, ishonch esa tartibni ushlab turadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida aytish mumkinki, qadimgi Sharq sivilizatsiyalarida ijtimoiy-ma'naviy muhit jamiyat barqarorligini ta'minlashning turli yo'llarini sinab ko'rgan va bu yo'llar tarixiy tajriba davomida bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida shakllangan. Ayrim an'analarda barqarorlikning asosiy sharti ichki nazorat va tarbiya bo'lib, so'z odobi, ota-onaga hurmat, jamoa obro'sini asrash, muomala madaniyati kabi mezonlar markazga qo'yilgan. Boshqa tajribalarda esa axloqiy talablar huquqiy normalar bilan mustahkamlanib, tartibni saqlashda sanksiya, javobgarlik va institutlar ustuvor bo'lgan. Yana ayrim yo'nalishlarda adolat, mas'uliyat va burch tushunchalari me'yorning "ichki tayanchi" sifatida qaralib, jamiyatning barqarorligi avvalo shaxsning ongida va e'tiqodida mustahkamlanishi kerakligi uqtirilgan.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, barqarorlikni saqlash uchun faqat bitta vosita yetarli bo'lmagan: tarbiya me'yorni "ichki" qabul qildirsa, huquq uni "tashqi" kafolatlaydi; insonparvarlik, hamdardlik va o'zaro ko'mak esa ishonch muhitini kengaytirib, jamoaning ichki birligini mustahkamlaydi. Shu bois ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish bugungi davr uchun ham amaliy ahamiyatga ega: ishonch susayishi, mas'uliyat me'yorlarining zaiflashuvi, adolat hissining yemirilishi yoki so'z madaniyatining buzilishi ko'pincha beqarorlikning eng chuqur sabablariga aylanadi. Muammo faqat resurs yoki boshqaruvda emas, balki qadriyatlar va institutlar o'rtasidagi uyg'unlikda bo'lishi mumkin.

Taklif sifatida, zamonaviy ma'naviy-ma'rifiy dasturlarda so'z madaniyati va mas'uliyatni bir butun kompetensiya sifatida shakllantirish, oilaviy va jamoaviy tarbiya mexanizmlarini kuchaytirish, shuningdek, adolat va javobgarlik tamoyillarini institutlar darajasida amaliy targ'ib qilish maqsadga muvofiq. Bunda "tarbiya + institut + ishonch" uchligi uzviy ishlashi kerak: tarbiya insonni ichkaridan barqarorlashtirsa, institutlar adolat va halollikni himoya qiladi, ishonch esa jamiyatni bir maqsad atrofida birlashtiradi. Qadimgi tajribalarni qiyosiy o'rganish esa yosh tadqiqotchilar uchun metodologik platforma bo'lib, tarixiy tafakkur, ma'naviy immunitet va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jacq, C. The Living Wisdom of Ancient Egypt. — New York: Simon & Schuster, 1999. — 176 p.
2. Kramer, S. N. History Begins at Sumer. — Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1981. — 388 p.
3. Hammurabi. The Oldest Code of Laws in the World / Transl. by C. H. W. Johns. — London: T. & T. Clark, 1903. — xii, 88 p.
4. The Mahābhārata: Vishnu S. Sukthankar, S. K. Belvalkar. Fascicule 20: Karnaparvan, pt. 1 / ed. P. L. Vaidya. — Poona: Bhandarkar Oriental Research Institute, 1950. — 320 p.
5. Manusmṛti. The Laws of Manu / translated by G. Bühler // The Sacred Books of the East, vol. 25. — Oxford: Clarendon Press, 1886. — 770 p. — Text: electronic resource. — Access mode: https://archive.org/stream/lawsofman00manu/lawsofman00manu_djvu.txt
6. Giles, L. Wisdom of the East: The Sayings of Confucius. A New Translation of the Greater Part of the Confucian Analects (with Introduction and Notes). — London: John Murray, 1920. — 132 p.

7. Teeter, E. Religion and Ritual in Ancient Egypt. — Cambridge: Cambridge University Press, 2011. — 266 p.
8. Samet, N. Instructions of Shuruppak: The World's Oldest Instruction Collection // Human Interaction with the Natural World in Wisdom Literature and Beyond: Essays in Honour of Tova L. Forti / ed. by M. Cogan, K. J. Dell, D. A. Glatt-Gilad. — London; New York: T&T Clark (Bloomsbury Publishing), 2023. — 330 p.